



UNITED ARAB EMIRATES IN WORLD POLITICS PLACE

Zarifa Z. Toshtemirova*Student**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Secret of success, US-UAE relations, UAE-Egypt relations, VISION 2021, Soft power strategy, Tourism statistics.

Received: 28.04.24**Accepted:** 30.04.24**Published:** 02.05.24

Abstract: This article examines the unique aspects of the political system of the United Arab Emirates, its role in foreign policy and its participation in international relations. Also, the factors that contribute to its formation as a state to its position as a sovereign state in the international arena are analyzed.

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARINING JAHON SIYOSATIDA TUTGAN O'RNI

Zarifa Z. Toshtemirova*Talaba**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Muvaffaqiyat siri, AQSH va BAA aloqalari, VISION 2021, Yumshoq kuch strategiyasi, Turizm statistikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola Birlashgan Arab Amirliklari siyosiy tizimi, tashqi siyosatda tutgan o'rni hamda xalqaro munosabatlarda ishtirok etishining o'ziga xos jihatlarini o'rganadi. Shuningdek, uning davlat sifatida shakllanishidan tortib to xalqaro maydonda o'zining suveren davlat sifatidagi o'z pozitsiyasiga ega bo'lishga yordam beruvchi omillar tahlil etiladi.

ЗАНИМАЮЩАЯ МЕСТО ОБЪЕДИНЕННЫХ АРАБСКИХ ЭМИРАТОВ В МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ

Зарифа З. Тоштемирова*Студент**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Секрет успеха, Отношения США-ОАЭ, Отношения ОАЭ-Египет, VISION 2021, Стратегия мягкой силы, Статистика туризма.

Аннотация: В данной статье рассматриваются уникальные аспекты политической системы Объединенных Арабских Эмиратов, ее роль во внешней политике и участие в международных отношениях. Также анализируются факторы, способствующие его становлению как государства и его положению как суверенного государства на международной арене.

KIRISH

Yurtimiz O'zbekiston Respublikasi va Yaqin Sharq o'rtasida azaldan geografik yaqinlik, tarixiy an'analar mushtarakligi hamda madaniy va diniy qadriyatlar chambarchasligi birlashtiradi. O'zbekiston demokratik prinsiplarga amal qilgan holda Yaqin Sharq, xususan arab davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni kengaytirmoqda. Ular orasida Birlashgan Arab Amirliklari O'zbekistonning ushbu mintaqadagi eng asosiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning musulmon mamlakatlari bilan fan-texnikaviy, ilmiy va madaniy aloqalarini yanada mustahkamlash, iqtisodiy va siyosiy sohadagi hamkorlik aloqalarini jadal rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir.

Birlashgan Arab Amirliklarining jahon siyosatida tutgan o'rni, xalqaro maydondagi pozitsiyasi alohida e'tiborga molikdir. BAA 1971-yil 21 dekabrda tashkil topgan. Siyosiy tizimiga ko'ra konstitutsiyaviy federatsiya hisoblanadi. Barcha suveren davlatlarda bo'lgani kabi Birlashgan Arab Amirliklarining ham o'z bayrog'i gerbi va madhiyasiga ega. BAA ma'muriy jihatdan yettita amirlikdan iborat: Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ras Al Xayma, Ajmon, Umm Al Quwayn, Fujayra. Har bir amirlik o'z hukmdoriga ega va mahalliy hokimiyatni isloh qilish hukmdor tomonidan belgilanadi.

ASOSIY QISM

Birlashgan Arab Amirliklari geografik jihatdan dunyodagi eng kichik davlatlardan biri bo'lishiga qaramasdan, ayni paytda eng boy davlatlar qatoridan ham joy olgan. Dunyodagi eng ko'p neft zaxiralari joylashgan hudud hisoblanadi, u eng muhim neft eksportchilaridan biridir. Bugungi kunda BAAda neft va gaz sanoati iqtisodiyotning yagona ustun tarmog'i emas. Uglevodorodlarni eksport qilishdan olingan daromadlar yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga sarflanadi va bu keyinchalik mamlakatning neft va gazga qaramligini bartaraf etishi ham ko'zda tutiladi. BAAning mintaqaviy ambitsiyalari va moliyaviy-iqtisodiy qudrati bu xususiyatlarning natijasidir. BAA issiq cho'l hududi edi, kichik va nisbatan kam aholi yashaydi. Biroq, konlar topilib, o'zlashtirilgach, muammolar o'tmishda qola boshladi. o'tgan asrning

ikkinchi yarmida neft konining topilishi chet elliklar oqimini xususan iqtisodiyotning eng ilg'or tarmoqlarining malakali mutaxassislarini jalb qilish imkonini berdi.

BAA muvaffaqiyatining siri amirliklar ikkiga bo'linganidir. ya'ni Dubay va Abu-Dabi. An'anaviy ravishda Dubay savdo korxonasi va savdogar qatlamining mavjudligi bilan mashhur. Natijada bu qatlam davlatning iqtisodiy elitesiga aylanadi. O'z navbatida Abu-Dabi o'zining bir qancha ustunliklari bilan ajralib turadi. Harbiy, siyosiy-ma'muriy, huquqni muhofaza qilish va boshqaruv xodimlariga rahbarlik qilish markazlari ham shu shaharda joylashgan. Shuning uchun ham Abu Dabi hukmdori ayni damda mamlakat prezidenti deb ham bejizga aytilmagan. Dubay hukmdori - vitse-prezident va bosh vazir hisoblanadi. Tanqidiy vaziyatlarda bir-birini qullab quvvatlashi federatsiyaning gullab-yashnashi va iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Misol uchun, 2008 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanganidan keyin Dubay fond bozori qulash xavfi ostida. Bu YaIM hajmining pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sababi AQSH Dubayning ko'chmas mulk sanoati va uning qurilishida faol ishtirok etgani bo'ldi va AQSh iqtisodiyotining qulashi natijasida u sezilarli darajada zarar ko'rganligi sababli, bu zanjirli reaksiyaga ko'p davlatlar qatorida Dubayni ham olib keldi. Dubayning investitsion kompaniyalari oldidagi qarz majburiyatlari taxminan milliardga oshdi. Vaziyat uglevodorodlar narxining vaqtincha pasayishi tufayli yanada og'irlashdi. Dubay iqtisodiyotining qulashi Birlashgan Arab Amirliklarining iqtisodiy qulashi va savdo-iqtisodiy beqarorlashuvga olib kelishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan ikki amirlikning bir birini qo'llab quvvatlashi natijasida bu inqirozdan chiqishga muvaffaq bo'ldi.

2010 yilda BAA ni 2021-yilgacha "dunyodagi eng yaxshi mamlakatlardan biriga aylantirishga qaratilgan **"VISION 2021"** davlat dasturi ishga tushiriladi. ushbu dastur asosiy 4 ta maqsadni o'z ichiga oladi:

1. BAA fuqarolarining g'urur va mas'uliyat hissiga ega bo'lishini, kelajakni ishonch bilan qurishga qodir bo'lishini va barqarorlik, birdamlik, mo'tadil islom qadriyatlari va milliy merosga asoslangan barqaror ijtimoiy muhitda samarali ishtirok e'tishini ta'minlash.

2. Ilmiy va akademik diplomatiya

3. Milliy vakillar diplomatiyasi 2. Amirlikni himoya qiladigan va muvozanatli rivojlanish tarafdori bo'lgan umumiy istiqbolga ega bo'lgan kuchli ittifoqni ta'minlash.

3. Amirliklar tomonidan boshqariladigan turli malaka va bilimga asoslangan moslashuvchan iqtisodiyotni rivojlantirish.

4. BAA fuqarolari uchun farovonlikni ta'minlash.

BAA tashqi siyosatining asosiy unsurlaridan biri adolat tamoyillarining qat'iy o'rnatilganligi hisoblanadi. Bu boshqa davlatlarining ichki ishlariga aralashmaslik hamda har qanday nizolarni o'zaro kelishuv orqali tinch yo'l bilan hal qilish tarafdori ekanligini anglatadi.

BAA yumshoq kuch strategiyasi. BAA "Global Soft Power Index" (GSPI)- 2022 ta'siri bo'yicha mintaqaviy miqyosda birinchi va global miqyosda 10-o'rinni egalladi 2017-yil sentabr oyida BAA Yumshoq kuch kengashi hukumatning yillik yig'ilishlari chog'ida BAAning yumshoq kuch strategiyasini ishga tushirdi. BAAning yumshoq kuch strategiyasi BAAning o'ziga xosligi, merosi, madaniyati va dunyoga qo'shgan hissasini ta'kidlash orqali mamlakatning chet eldagi global obro'sini oshirishga qaratilgan.

Ular:

I. Iqtisodiyot, gumanitar fanlar, turizm, ommaviy axborot vositalari va fan kabi turli sohalar uchun mos bo'lgan yagona yo'nalishni ishlab chiqish

II. BAAning mintaqaga kirish eshigi sifatidagi pozitsiyasini ilgari surish

III. BAAni madaniyat, san'at va turizmning mintaqaviy poytaxti sifatida belgilash

IV. Butun dunyodan tashrif buyuruvchilar uchun shart- sharoitlar yaratish hamda zamonaviy va bag'rikeng mamlakat sifatida obro'sini o'rnatish.

Strategiya shuningdek, BAAning xalq diplomatiyasi uchun asos bo'lgan **oltita** asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. gumanitar diplomatiya

4. xalq diplomatiyasi

5. madaniy va ommaviy axborot vositalari diplomatiyasi

6. iqtisodiy diplomatiya.

BAA ning xorijiy davlatlar bilan aloqalar Amerika Qo'shma Shtatlari BAAni 1971 yil dekabr oyida tashkil etilganidan so'ng birinchilardan bo'lib mustaqilligini tan olgan davlat hisoblanadi.. Va elchi Uilyam A. Stoltsfus 1974 yilda AQSh elchixonasini ochishga tayyorgarlik ko'rish uchun uch oydan so'ng BAAGA favqulodda va muxtor elchisi bo'lib tayinlanadi.

AQSH Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) bilan 1971-yildan buyon, Buyuk Britaniyadan tashkil topgan va mustaqil bo'lganidan keyin do'stona munosabatlar o'rnatgan. Ikki davlat o'rtasidagi rasmiy aloqalar 1972 yilda rasmiy tarzda boshlangan. BAA ningYaqin Sharqdagi roli katta ahamiyat kasb etadi va Qo'shma Shtatlar uchun asosiy hamkor hisoblanadi. Qo'shma Shtatlar va BAA mudofaa, yadroviy qurollarni tarqatmaslik, savdo, huquqni muhofaza qilish, energetika siyosati va madaniy almashinuv kabi barcha masalalar bo'yicha kuchli ikki tomonlama hamkorlikka ega. Ikki davlat o'rtasida o'zaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish suratlarini oshirishni qo'llab-quvvatlash, mintaqada va umuman butun dunyoda

ta'lim sifatini yaxshilashda o'zaro hamkorlik munosabatlarini olib borishga kelishiladi. BAAning gullab-yashnashi ko'p jihatdan mamlakatning ulkan neft va gaz zahiralarga asoslanadi. Ushbu davlat Qo'shma Shtatlarning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasidagi yagona yirik eksport bozori bo'lib, mamlakatda 1000 dan ortiq AQSh firmalari ishlaydi. Kuchli logistika va transport industriyasiga ega bo'lgan yana ko'plab AQSh kompaniyalari BAA dan Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Osiyoning ayrim qismlarida biznes yuritish uchun mintaqaviy shtab sifatida foydalanadi. BAA va Qo'shma Shtatlar bir xil xalqaro tashkilotlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Banki va Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo. O'shandan beri BAA va Qo'shma Shtatlar o'rtasida barqaror va mustahkam munosabatlar mavjud. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 23 milliard dollarga yetdi. Bundan ham muhimi, BAA AQSh boshchiligidagi Quvayt, Afg'oniston, Serbiya va Iroqdagi harbiy amaliyotlarda hamda NATOning Liviyadagi AQSh boshchiligidagi missiyasida ishtirok etgan. Ushbu mustahkam aloqalar tarixi AQSh ommaviy axborot vositalarida BAA bilan munosabatlarga oid hozirgi munozaradan farq qiladi - bu yangi past darajaga yetmoqda yoki BAA Baydenga e'tibor bermasligi va Rossiya bilan ittifoqchilikda birdamligini ko'rsatayotgani tufayli inqiroz ham mavjud. Qo'shma Shtatlar. Shunga qaramay, hozirgi munosabatlar ba'zi stress sinovlaridan o'tmoqda.

Misr va BAA o'rtasidagi munosabatlar 1950-1960 yillarga borib taqaladi. Prezident Gamal Abdel-Nosir Arab ko'rfazining Britaniya istilosidan ozod etilishining asosiy tarafdori edi. Misr ko'rfaz davlatlarini qurishda yordam berish uchun minglab shifokorlar, o'qituvchilar va muhandislarni yubordi, ularning ko'p fuqarolari Misr maktablari va universitetlarida o'qish uchun Misrga kelgan. BAAning asoschisi Shayx Zayd prezident Anvar As-Sadat bilan yaqin shaxsiy munosabatlar o'rnatgan va ikki davlat 1972 yilda diplomatik munosabatlar o'rnatgan. 1973 yilda BAA Isroil bilan urushda Misrni qo'llab-quvvatlagan. Shayx Zayd qurol sotib olish uchun 1 milliard dollar yordam taklif qildi va urushdan keyin BAA Suvaysh, Ismoiliya va Port Said shaharlarini qayta qurishda yordam bergan Ko'rfazdagi arab davlatlari qatoriga kirdi. Ittifoqni nishonlash uchun Suvaysh yaqinida Shayx Zayd shahri qurilgan. Prezident Husni Muborak Shayx Zayd bilan, keyin esa uning vorisi Shayx Xalifa bin Zoid bilan yaqin munosabatlarni saqlab qoldi. Ikki davlat o'rtasida 2000-2008 yillar davomida 18 ta iqtisodiy va tijorat shartnomalari, shuningdek, diplomatik va maxsus missiya pasportlari egalarini viza talablaridan ozod qiluvchi anglashuv memorandumini imzolangan. 2010 yilga kelib BAA Misrdagi eng yirik arab sarmoyadori bo'lib, 1,4 milliard dollar sarmoya kiritdi.

Anqara - BAA Abu-Dabi valiahd shahzodasi Shayx Muhammad bin Zoidning Turkiyaga tashrifi va Prezident Rajab Toyyib Erdo'g'on bilan uchrashuvi va kelishmovchiliklarni bartaraf

etish orqali mintaqaviy miqyosda qabul qilgan “muammolarni nolga tushirish” siyosatidagi eng muhim qadamini tashladi. O‘tgan yillar davomida ikki mamlakat o‘rtasida mintaqaviy muammolar bo‘yicha sodir bo‘lgan. “Nol muammo” siyosati Eronga ham taalluqli edi. Eron tashqi ishlar vazirining siyosiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari va yadroviy masalalar bo‘yicha bosh muzokarachi Ali Bagheri Kani Abu-Dabiga keldi va tashrif chog‘ida BAA prezidentining diplomatik maslahatchisi Anvar Gargash va tashqi ishlar bo‘yicha davlat vaziri Xalifa Shohin Al Marar bilan uchrashdi. Siyosiy kuzatuvchilarning aytishicha, Shayx Muhammad bin Zoidning Anqaraga tashrifi BAA Yaqin Sharqdagi inqirozlarni yumshatish yo‘lini boshqarayotganini, qarashlari, kayfiyatlari va hisob-kitoblaridagi tafovutlardan qat’i nazar, mintaqa xalqlariga xizmat qiladigan munosabatlar o‘rnatishga intilayotganini ko‘rsatadi. Birlashgan Arab Amirliklari bundan o‘n yildan ko‘proq vaqt oldin do‘stona ishora sifatida Turkiya uchun ayniqsa energiya sohasida sarmoyaviy loyihalar tayyorlagan edi, lekin ikki davlat o‘rtasida siyosiy kelishmovchilik kuchayganidan keyin loyihalar amalga oshirish yo‘lini topa olmadi.

Turizm statistikasi. BAA sayohat va sayyohlik sektorini rivojlantirish uchun bir qancha tashabbuslarni amalga oshirdi. 2022 yilda sayohat va turizm sektorining BAA yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi deyarli 167 milliard AEDni tashkil etdi, bu umumiy YIMning 9 foiziga teng edi. Xuddi shu yili xalqaro sayyohlar BAAda 117,6 milliard AED sarfladilar. BAAdagi mehmonxonalar soni 1189 taga ko‘paydi va mehmonxona sig‘imi 203 ming xonaga yetdi.

Birlashgan Arab Amirliklari ko‘p sabablarga ko‘ra mashhur sayyohlik joyidir. BAAni dunyodagi ideal sayyohlik maskaniga aylantiradigan ba’zi omillar mavjud:

Zamonaviy infratuzilma:

BAA o‘zining eng zamonaviy infratuzilmasi bilan mashhur. Mamlakatda zamonaviy transport tizimlari, jahon darajasida qurilgan yuqori sifatli mehmonxonalar va dam olish maskanlari, yuqori standartlarda qurilgan savdo majmualari mavjud.

Turli xil manzaralar:

BAAda turli xil landshaftlar, jumladan, plyajlar, cho‘llar, tog‘lar va shahar manzaralari mavjudligi tashriv buyuruvchilarning e’tiborini o‘ziga jalb qiladi Sayyohlar piyoda yurish, lager va suv sporti kabi turli xil mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishi mumkin.

Xarid qilish manzili:

BAA o‘zining xaridlari, hashamatli savdo markazlari va sifatli tovarlarga ega bo‘lgan bozorlari bilan mashhur. Birlashgan Arab Amirliklari chet ellik hamkorlarga kiyim-kechak mahsulotlaridan tortib oltin va ziravorlarga hamma narsani taklif qiladi.

Xavfsiz va barqaror muhit:

BAA xavfsizlik darajasi jihatidan eng yuqori o'rinlardan joy egallagan. Buning sababi mamlakatda jinoyatchilik darajasi pastligi va teng darajada bag'rikeng siyosat yuritish bilan izohlanadi.

Issiq ob-havo:

BAA yil davomida issiq iqlimga ega bo'lib, u sovuq havodan qochmoqchi bo'lgan sayyohlar uchun ideal manzilga aylanadi.

Ko'p madaniyatli jamiyat:

BAA ning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri fuqarolarning turli millatga mansubligidir. Birlashgan Arab Amirliklarida kamida 20 yil yashagan har qanday chet ellik shaxs amirlik fuqarosi bo'lish huquqiga egadir.

Umuman olganda, BAA o'zining boy madaniy merosi va zamonaviy infratuzilmasidan tortib turli landshaftlari va xavfsiz muhitigacha sayyohlarga juda ko'p narsalarni taklif qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, BAA kelgusi davr uchun yangi rivojlanish strategiyasi maqsadlariga erishish uchun iqtisodiy, ilmiy, ta'lim va texnologik resurslarga ega. Bu quyidagi omillarga bog'liq.

Birinchidan, hukumat milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha faol va tizimli ish olib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, BAA federal hukumati daromadlarining 30% i neftga qolgan 70% esa boshqa sohalarga to'g'ri kelishi aytilmoqda. Bu esa rivojlanish strategiyasi muvaffaqiyat bilan o'z vazifasini bajarayotganligining bir belgisidir.

XVJ ma'lumotiga ko'ra, BAA iqtisodiyoti arab mamlakatlari orasida eng raqobatbardosh hisoblanadi. Mamlakat hukumat, biznes va infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratdi. Shuningdek, Amirlik hukumati 2030 yilga kelib milliy iqtisodiyot hajmini ikki baravar - 1,5 trillion dirhamdan 3 trillion dirhamgacha (409 milliard dollardan 822 milliard dollargacha) oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda.

Ikkinchidan, inson salohiyati va ta'limini rivojlantirishga sarmoya kiritish. BAA BMTTDning Inson taraqqiyoti indeksida arab dunyosi va Fors ko'rfazi mintaqasida 1-o'rinni egallaydi, bu inson rivojlanishining 3 ta asosiy yo'nalishi bo'yicha uzoq muddatli taraqqiyotning yig'ma ko'rsatkichidir.

Amirlik asosiy e'tiborini aholining bilim salohiyatini rivojlantirishga qaratdi. Mamlakatda o'ndan ortiq yangi oliy o'quv yurtlari, jumladan, 30 dan ortiq xorijiy davlat ta'lim muassasalarining filiallari ochildi. Xususan, akademiklar uchun maxsus shaharchalar, kadrlar salohiyatini yanada rivojlantirish uchun erkin zonalar tashkil etilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish strategiyasini davlat siyosatining asosiy istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Abu-Dabi AKT va

muvaffaqiyatli startaplarni rivojlantirishga katta sarmoyalarni jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. Deyarli barcha yirik IT-kompaniyalarning BAAda vakolatxonalari mavjud. Shveytsariyaning StartupBlink tadqiqot kompaniyasi tomonidan mamlakat arab davlatlari orasida eng yuqori o'rinni egallashi alohida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, Amirlik hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ham tasdiqladi, bu esa keyingi 10 yil ichida uning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasini 9,7 foizdan 19,4 foizga ikki baravar oshirishni nazarda tutadi. Bu ularga Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari orasida birinchi o'rinda qolish imkonini beradi.

Birlashgan Arab Amirliklariyuqori iqtisodiy rivojlanishga qaramasdan, ba'zi muammolarga ham duch keladi.Xususan,avtomobil va turli transport vositalarining harakatlanishi natijasida havoga changning qayta ko'tarilish ehtimoli yanada oshmoqda.Bundan tashqari sahrolanishni sekinlashtirish va uni oldini olish uchun ham say harakatlar olib borilmoqda.BAA da qishloq xo'jaligi boshqa tarmoqlarga nisbatan kichikroq ko'rsatkichni tashkil qiladi.Shunday bo'lishiga qaramasdan meva va sabzavotlarga bo'lgan katta talabni qondira oladi. Iqlim o'zgarishini bartaraf etish hamda azon qatlamining yemirilishini oldini olish uchun tashabbuslar amalga oshirilmoqda.BAA da aholi soni o'sib borgani sayin maishiy texnika va transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar kundan kunga ko'paymoqda.NDCs ma'lumotlariga ko'ra BAA zaharli gazlar miqdorini oldingiga nisbatan 23.5% kamaytirishni maqsad qilgan.

Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi Al Yasat hududi bo'yicha kelishmovchilik.

Bin Zayed BAA da siyosiy hukmronlikka ega bo'lganidan so'ng Al Yasat hududini "himoyalangan dengiz hududi"deb e'lon qilgandan so'ng Ar-Riyod Abu Dabini o'z chegaralariga tajovuz qilishda aybladi.Ikki fors ko'rfazi o'rtasidagi mojaro yana keskin tus olishni boshladi. 2024 yilning 18 mart sanasida Saudiya Arabistoni o'zining BMTdagi vakolatxonasi orqali BMT kotibiga BAA ning janubida joylashgan Al Yasat hududi ustidan rasmiy shikoyat yuboradi. Al Yasat xilma xil tabiiy boyliklarga ega hudud hisoblanadi. Ushbu hudud 1971 yilda BAA tashkil topishidan oldin Saudiya Arabistonining bir qismi bo'lgan va Dastlab Saudiya Arabistoni va BAA o'rtasida 1974 yilda Jidda kelishuvi deb nomlangan chegara shartnomasi imzolanadi. Saudiya Arabistoni Neftga boy bo'lgan Buraymi vohasiga,Ummonning shimoliy-g'arbiy qismi va Amirliklar o'rtasida joylashgan hududga bo'lgan da'vosidan katta miqdorda neft olish evaziga voz kechdi.Taxminlarga ko'ra ,Jidda shartnomasi bu mojaroga barham bergan bo'lsada,u hali ratifikatsiya qilinmagan edi

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Birlashgan Arab Amirliklari deganda ko'z o'ngimizga hayratlanarli arxitekturaga ega bo'lgan, hashamatli imoratlar, turizm salohiyati yuqoriligi bilan ajralib turadigan hamda iqtisodi tez suratlarda rivojlanayotgan kuchli bir davlat gavdalanadi. AQSH davlatining o'ziga xos jihati uning yumshoq kuch siyosati bo'lgani kabi, BAA ham iqtisodining ko'p tarmoqlar orqali rivojlanganligi bilan alohida e'tiborga molikdir. Misol uchun, Dubay va Abu Dabi bir necha o'n yil ichida cho'l mintaqasidan global biznes markaziga aylandi. Dastlab bu o'sish boy neft zahirasi hisobiga deb izohlandi. Keyinchalik esa ko'chmas mulk, turizm va moliya sohasidagi tub burilishlar natijasida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yanada kengaydi. Dubay Shopping Festivali, Abu Dabi Gran-prisi va Dubai Expo 2020 kabi jahon miqyosidagi tadbirlarning o'tkazilishi BAA ning global turizm sohasida yuqori o'rinlarda turganligini anglatadi.

Bularning barchasi Birlashgan Arab Amirliklarining Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishga hamda iqtisodiy va madaniy yaqinlashuv markazi sifatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishligi uchun hissa qo'shadi. Hozirgi kunga kelib, BAA xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Timur R. Khairullin, Andrey V. Korotayev. 2023 https://www.net/publication/375863507_OAE_v_borbe_za_regionalnoe_liderstvoUAE_in_the_Struggle_for_Regional_Leadership
2. Habibullo Sadibaqosev & Ibrohimxon Sadridinov (2023). O'zbekiston va BAA o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor yo'nalishlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 693-694
3. Valiyev Botir Nosirovich. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(6), 36
4. U.S Relations With United Arab Emirates (U.S Department of State.gov) Dec 9, 2020 <https://www.state.gov/u-s-relations-with-united-arab-emirates/>
5. [World Travel and Tourism Council](https://u.ae/en/information-and-services/visiting-and-exploring-the-uae/travel-and-tourism). 04 January 2024 <https://u.ae/en/information-and-services/visiting-and-exploring-the-uae/travel-and-tourism>
6. 2031_الأجندة_الوطنية_لجودة_الهواء_لدولة_الإمارات.pdf
8. الإمارات تتخذ أهم خطوة في سياسة "تصغير المشاكل أبوظبي تعلن تأسيس صندوق بقيمة عشرة مليارات دولار لدعم الاستثمارات في ترك
9. الخلاف حول منطقة الياسات بين الإمارات والسعودية.. مشكلة حدود فقط؟ إسرائ سيد 17 أبريل , 2024 <https://www.noonpost.com/209203>